



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 310,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (32,1 %), moliyaviy xizmatlar (18,8 %), transport xizmatlari (17,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,8 %) ustunlikka ega.

2020-yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	2 310,4	94,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	156,7	113,3
Moliyaviy xizmatlar	433,9	128,7
Transport xizmatlari	400,3	85,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	354,4	86,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	42,3	76,8
Savdo xizmatlari	742,2	92,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	59,1	76,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	104,5	98,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	41,8	85,4
Ijara xizmatlari	51,1	99,4
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	52,8	78,0
Shaxsiy xizmatlar	140,2	78,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	25,2	60,3
Boshqa xizmatlar	60,3	84,4

2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (128,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,3 %), ijara xizmatlari (99,4 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 141,5 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-aprel oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oyida o'tgan yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (136,1 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (30,1 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi, transport xizmatlari esa (-25,2 mlrd. so'mga) kamaygan.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning yanvar-aprel oyida moliyaviy xizmatlari 133,2 mlrd. so'm, savdo xizmatlari 123,7 mlrd. so'm, transport xizmatlar 48,9 mlrd. so'mga oshgan.



2020-yil
yanvar-aprel


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (60,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (76,8 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (76,9 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020-yil yanvar-aprel oyida uning ulushi 32,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlar (18,8 %), transport xizmatlari (17,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) egallaydi.

2020-yil
yanvar-aprel


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2020-yil yanvar-aprel oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (88,5 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 11,1 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.



2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020-yil yanvar-aprel oyida uning ulushi 78,2 % ni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-aprel oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,9 % ni egallaydi.

2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oyida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (97,2 %) egallaydi.


Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,0 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,5 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,2 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi 2020-yil yanvar-aprel oyi, %



■ Telekommunikasiya xizmati

■ Axborot sohasidagi xizmatlar

■ Nashriyotchilik xizmati

■ Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati

■ Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati

2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2020-yil yanvar-aprel oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2020-yil yanvar-aprel oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 433,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 128,7 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (91,7 %) tashkil etadi.

2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yilning yanvar-aprel oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 42,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan o'sish sur'atlari 76,8 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,8 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 100 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,6 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-aprel oyida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm

2020-yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2 414,8 ming. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 411,7 ming so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28

2020-yil
yanvar-aprel

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi